



BADIIY NUTQDA QO'LLANGAN MAQOLLARNING PSIXOLINGVISTIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Akbarali Mingboyevich Boymirzayev¹,
Bo'ronova Ra'no Abdujabborovna²

¹Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o'qituvchi
aliboymirza1614@gmail.com,

²Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talaba
boronovara'no54@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6481002>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-aprel 2022
Ma'qullandi: 20-aprel 2022
Chop etildi: 23-aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

badiiy nutq,
psixolingvistika, individual
nutq, personaj
xarakteristikasi, nutqiy
vaziyat, so'zlovchi maqsadi,
lisoniy xotira, propozitsiya,
presuppozitsiya

ANNOTATSIYA

Maqolada badiiy nutqda qo'llangan maqollarning uslubiy-semantik imkoniyatlari psixolingvistik aspektda ochib berilgan. Tog'ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasidan olingan konkret misollar – maqollarning matndagi o'rni va semantik xususiyatlari izohlanib, ularning personaj nutqida yuzaga chiqargan semantikasi va badiiy obraz nutqning individallashtirishdagi ahamiyati batafsil yoritildi.

Til — millatning ruhi¹. Darhaqiqat, til bir millat vakillarining o'tmishi, ertasi va kelajagi haqida so'zlovchi ko'zgidir. Bunda esa, mana shu tilda xalqning tajribasi va xulosalari orqali paydo bo'lgan birliklar: maqol, matal, ibora va tasviriy ifodalarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Badiiy asarlarda, xususan, personaj nutqida maqol va hikmatli so'zlar xilma-xil uslubiy ma'nolarni anglatish vazifasini bajaradi. Shuningdek, o'quvchi ongida yaxshi saqlanib qolishiga hamda nutq vakilini individuallashtirishda ifoda imkoniyatining, ta'sirchanlik darajasining kengayishida alohida o'rin tutadi.

Bugunga qadar ham maqollar bilan bog'liq keng tadqiqot ishlari amalga oshirilganiga

qaramay, mazkur birliklarning mohiyati to'la to'kis ochib berilgan deyish noto'g'ridir. Chunki nutqiy birliklar masalasida shunday pozitsiyalar mavjudki, ular bir lisoniy birlik nutqiy birlik sifatida yuzaga chiqqanda boshqa-boshqa nutqiy vaziyatlarda so'zlovchi (yozuvchi)ning turli maqsadlarini, umuman, badiiy nutq imkoniyatlarining yangi qirralarini ochib beradi. Shu sababli maqollarni o'rganishda sotsiolingvistik, lingvopragmatik, lingvokulturologik, psixolingvistik va boshqa aspektlarda yondashishlar kuzatilmogda.

Maqol o'z-o'zidan birikma holatida xalq hayotiga kirib qolgan sodda birlik emas, balki xalqning necha ming yillik tajribasi

¹ Gumbold



mahsulidir. Mazkur tajriba har bir davrda qayta jonlanib, tadrijiy taraqqiyot kasb eta borgan. Bir millatga mansub barcha insonlarning lisoniy xotirasida o'rinlashgan bu kabi birliklarning mazmun-mohiyati xalqning joniga, qoniga, ruhiga singib ketgandek go'yo.

Maqollar ham boshqa birliklar kabi keng ko'chma ma'nolarga ega bo'lib, o'z holicha tushunilmaydi. So'zlovchi tub maqsadini anglash uchun tinglovchida ham ayni nutqiy vaziyat bilan bog'liq bilimlar mavjud bo'lishi, lisoniy bazasida so'zlovchi bilan bir xil "umumiy zaxira" mavjud bo'lishi shart bo'ladi. Albatta, maqollardan foydalanishda shu maqolni ishlatayotgan shaxsning maqsadi yetakchilik qiladi. Iboraning maqolga aylanishi yoki hikmatli so'z va hadislarining mana shu jarayonga yetib kelishi uchun juda ko'p bosqichlardan o'tiladi va yuqoridagi qoidalarga mos bo'lishi talab qilinarkan.

Xalq maqollari, topishmoqlar va frazemalar ta'sirchan, bo'yoqdor, badiiylik ko'lamiga ega bo'lib, ularda ham qiyoslovchi va qiyoslanuvchi vositalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik munosabati kuzatiladi. Ta'kidlash joizki, maqol, topishmoq va frazeologik birlikmalarda ko'chma ma'no yetakchilik qiladi. Jumladan, maqollar asosan ma'no va hodisalarni obrazli sifatlovchi birlikdir. Shunga muvofiq uning tarkibiy qismlari – komponentlari ham ko'chma ma'noli ichki fikrlar yuritiladi.² Personaj nutqining ta'sirchanligini oshirishda o'zbek xalq maqollaridan keng o'rinda foydalaniladi. Ba'zan esa, uning individual xususiyatlarini ochib berishda boshqa millat vakillarining hikmatli so'zlari yoki maqollaridan ham

yo'zuvchi tomonidan asar tiliga kiritiladi. Bunday vaziyatda ko'p hollarda maqollar so'zma –so'z tarjima qilinadi, ba'zan muqobili qo'llaniladi. Bugungi kunda badiiy asarlarni tarjima qilishda ko'pgina muammolar yuzaga kelmoqdaki, so'zma-so'z tarjima qilingan maqollarning ma'nosiga biroz ta'sir qilmoqda. Muqobil variantlarini qo'llash bo'yicha ko'pgina izlanishlar olib borilmoqda va ilmiy maqolalar chiqarilmoqda. Yana shunday maqollarimiz borki, bugungi kunda ishlatilishi torayib dialekt sifatida ma'lum hududlarimizdagina uchramoqda. Bu maqollarimizning variantlari keng qo'llanilsada, badiiy asar tilida uslubiy bo'yoqdorlikni oshirish uchun eski shakli ko'p uchrashi kuzatiladi.

Xususan, T.Murod o'z asarlarida asar qahramonining xarakterini cho'rtkesar, dangalchi, aytganini qiladigan, bir so'zli sodda odamlar; oddiy qishloq kishilari: qishloq ziyolisi, qishloq raisi, cho'pon yoki polvonlar dunyoqarashini ko'rsatish yoki ma'lum vaziyatdagi holatini ochib berishda keng o'rinda foydalanadi. Qahramon xarakterini ochishda maqollarning o'rni beqiyos bo'lib, asar qahramonining ruhiy holatini ko'rsatadi. Mana shu maqsadni ko'zlagan holda Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidagi xalqona maqollarni yoritib berishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Asarda : *"Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi"; "Yo'g'on cho'zilib ingichga uzilganda"; "Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramas"; "Yeti o'lchab, bir kes"; "Rang ko'r, hol so'r"; "Ko'rpangga qarab oyoq uzat"; "Ot o'rnini toy bosadi "* kabi maqollar mavjud

² Abdurahmonov.X o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining sentaksis xususiyatlari



bo'lib, bu maqollarni qahramon ruhiyati bilan til o'rtasidagi aloqani bog'lagan holda o'rganib chiqdik. Tilda ming yillar davomida shakllangan ma'naviy meros, madaniy yodgorliklar bilan birga xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlarini madaniy saviyasi ham aks etadi. Bugungi tezkor zamonda, tilimizda yangidan yangi atamalar kirib kelyotgan bir paytda, inson ruhiyatiga ta'sir qiluvchi asarlar nihoyatda qadrlanmoqda. Bu asarlarni boyitishga xizmat qilayotgan birliklar esa paremalardir. Yozuvchi bunga alohida e'tibor beradi va birliklardan o'rinli va mohirona foydalanadi.

Yetti o'lchab, bir kes.

Mazmuni: "Har bir ishni obdon o'ylab, tadbirkorlik bilan puxta qil".

Variantlari: "Yog'och kessang uzun kes, kessa bo'lur, temir kessang kalta kes, cho'zsa bo'lur"; "Kiyim bichsang, uzun bich, kessang bo'lur"; "O'ymoq bichmoqchi bo'lsang ham, o'ylab bich" (*O'ymoq* kiyim teshigi).³

«– Polvonlarning har yerda o'tlab yuribdi, bu nima o'tirish? – dedi. – Menga qara, zo'r-zo'rlarini bir yerga yig'. Sho'rchiliklar kepti tushundingmi? O'zing bosh bo'l. Qurga tartib bilan chiqar. Shoshma, yetti o'lchab, bir kes. Sho'rchiliklarning o'ngi, chapiga e'tibor qil. Qaytarib aytaman, faqat sho'rchiliklarga ko'z tikinglar. Binoyimi?»

– Binoyi, polvon bova, binoyi⁴. »

Bo'ri polvon nutqida ishlatilgan "Yetti o'lchab, bir kes" maqolida yuqorida izohlab o'tganimizdek, o'ylab ish qilish ma'nosi anglashilib turibdi. Davraga chiqarilayotgan polvonlarni tartib bilan, o'ylab, kuchiga

qarab chiqarish ta'kidlanmoqda. Shunga ham e'tibor berish kerakki, Bo'ri polvonning nutqi orqali ifodalanayotgan maqolda qahramon fe'l-atvori aks etadi. Demak, Bo'ri polvon – yetti o'lchab, bir kesadigan obraz.

Yo'g'on cho'zilsa, ingichka uziladi.

Majozi: "Og'ir kunlar kelganda boylar – to ko'r-qutlari tugab, qashshoqlashib qolganlariga qadar, qurquti, jamg'armasi yo'q kambag'allar ochdan o'lib ketgandilar". Ayni shu ma'no keyinchalik maqol hosil bo'lishiga sabab bo'lgan.

Varianti: "Bor cho'zilar, yo'q uzilar"; "Semiz orriqlaguncha, oriq o'ladi"; "Keng kengashib yirtilar, tor tortishib yirtilar". Odatda kishiga kengroq bo'lib turadigan kiyim hadeganda yirtilavermaydi, tor kiyim esa, ehtiyotsizlik bilan qilingan qo'polroq harakatga chokidan so'kilib, yirtilib ketadi. Mazkur maqol bilan majozan: "Boy birdaniga kambag'allashib qolmaydi, kambag'al esa arzimagan, kichkina muvaffaqiyatsizlik oqibatida ham qattiq aziyat chekadi" deyilmoqda.

« – Bir- ikkita dadilrog'i bilan bizning Tilovberdini davra oxiriga asra. Yo'g'on cho'zilib, ingichga uzilganda kunimizga yaraydi. Yana kim bor?⁵ »

Ba'zan to'la shaklda qo'llanilgan maqol so'zlovchining yakdil, aniq xulosaga kelganini bildiradi.⁶ Xususan, Bo'ri polvon ham mazkur vaziyatni anglagan holda, o'g'lini qaltis vaziyat uchun asrashni tayinlamoqda. Asar mavzusi polvonlar dunyosi bilan bog'liq ekan, or masalasi birlamchi mohiyatga ega va shuning uchun ham jamoa o'zi ishongan bir polvonini

³ Shorahmedov va Shomaqsudov "Hikmatnoma"

⁴ T.Murod "Yulduzlar mangu yonadi"

⁵ T.Murod. "Yulduzlar mangu yonadi"

⁶ Bolta Yoriev "Til va uslub"



so'nggi najot sifatida asrab qo'yishi sir emas.

Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramas.

Varianti: *"Itidan tuqqan — qurbonlikka yaramas"; "Eshakdan tuqqan — insonlikka yaramas"*. Qurbonlik – diniy marosim, har yili bir marta qurbon oyida bo'ladi. Molning ham qurbonlikka yaraydigan va yaramaydigani bo'ladi. Masalan, "qo'ying yoki echkining qulog'i chinqoq bo'lmasin, oyog'i oqsoq bo'lmasin, kasal bo'lmasin benuqson bo'lsin", – degan shartlari bor. Ba'zan qo'y tug'adi-da o'ladi, bolasi yetim qoladi. Ba'zan bu qo'zini yangi tuqqan itga emikdosh qilib qo'yiladi. Bunday qo'ying qo'zilari ham qurbonlikka yaramaydi. Kishilar orasida esa yomonning bolasi ham yomon bo'ladi. Yomonlik shunday bir baloki, nasldan naslga o'tadi. Yomonning bolasi ham el og'asi bo'lishlikka yaramaydi, deb qaraganlar va shubha qilganlar. Bu maqol ham majoziy ma'noda yomon odamning bolasiga nisbatan ishlatilgan.⁷

«Bo'ri polvonga alam qildi.

"Uh, qizbet! – dedi. – Aqalli bir og'iz chiqmayman demadi-ya!"

Juda-juda alam qildi.

"Qizbet! Itidan bo'lgan, qurbonlikka yaramas! Qarab tur, sen qizbetni davraga qaytib chiqmaydigan qilmasam ko'rasan.»

Bo'ri polvon davraga chiqqan Nasim polvonni do'st bo'lishiga qaramay kurash tushishga chiqqanidan jaxli chiqqan Bo'ri polvon haqorat tariqasida ishlatadi bu maqolni. Bu yerda personaj nutqi orqali uning dangalligi, zardasi, achchiq kinoyasi anglashib turibdi.

Rang ko'r, hol so'r.

Birov bilan muomala qilishda uning kayfiyatiga, vaziyatiga qarab ish tutmoq ma'nosida qo'llaniladi.

Varianti: "Tobi qochganing taftini ko'r" bu shaklda ham yuqoridagi ta'rifning xuddi o'zi takrorlanib kelmoqda.

Asarda o'zining yomon fe'li oraqasidan birigadadan haydalgan Nasim polvon bu ahvolni Bo'ri polvondan ko'radi .

« – Bilaman buning hammasi Bo'ri ning ishi!- dedi.-Nasim qayerga borsa kun bermanglar, deb aytib qo'ygan! Undan yaxshilik chiqmaydi! Ichi qora uning! Qovog'idan qor yog'ib turibdi! Rang ko'r, hol so'r, degan! U bizni qo'ymaydi! Ketamiz, dunyoning kolxozi bitta emas! »

Ba'zan maqollar "degan", "degan gap bor", "deganday", "bejizga ... deb aytishmagan" kabi birliklar bilan ifodalanadi. Maqollar shunday birlikki, unda personaj xarakteri orqali mazmun ham o'zgarib ketadi. Ushbu maqolda asar qahramonlaridan biri Nasim polvon tilidan olinib, anchadan buyon xafalashib yurgan Bo'ri polvondan ishdan ketishinining sababini ko'rmoqda. " Rang ko'r, hol so'r" degan ya'ni, uning yuzidan noroziligi bilinib turibdi demoqchi.

Ko'rpangga qarab oyoq uzat.

Variantlari: "Bo'yingga qarab to'n bich"

O'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda harakat qilishga undash ma'nosi aks etgan. Ya'ni hamma narsa imkon darajasida bo'lishi darkor.

«Anavi yosh bolaga, ko'rpangga qarab oyoq uzatsang-chi, degan qarash qildi.»

Bo'ri polvonga qarshi davraga chiqqan Ismoil polvonning anchayin yosh va tajribasizligi uchun o'zini u bilan kurashishga munosib ko'rmay ishlatmoqda.

⁷ Shorahmedov va Shoahmedov " Hikmatnoma"



Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi.

Variantlari: “Qon bilan kirgan - jon bilan chiqadi”; “Qorinda paydo bo’lgan qiliq, qora yerda qoladi”; “Yo’rgakda tekkan kasal o’lganda ham ketmaydi”; “Sut bilan kirgan mijoz – suyak bilan birga ketar”.

Yusuf Xos Hojibga mansub quyidagi misralar mazkur maqolning juda qadimiyligini bildiradi:

Urung sut bila kirsadgu qiliq,

O’lum tutmog’incha oburmas yuriq,

Yag’iz yer qatinda ketar, ay tetik, –

shaklida qo’llaniladi. Mazmun ona qornida paydo bo’lgan yomon qiliq toki o’lguncha vujudni tark etmaydi.⁸

«Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi!

Bo’ri polvon endi o’zi bilan o’zi kurasha boshladi. Davralarga qarab o’tirib o’z-o’zidan olishgisi kelaverdi.

Ayniqsa, lanj polvonlar olishini ko’rsa, Bo’ri polvonga bir bo’lak kun tug’di. O’tirolmay, o’rnidan turib ketdi. Qo’llarini orqasiga qilib, davra sirtida asabiy yurdi.

– Qo’g’irchoq! Polvon emas bular, qo’g’irchoq! — dedi.

O’z qishlog’i polvonlari mag’lub bo’lsa, butun vujudini qaltiroq tutdi. Polvonlik qoni qo’zg’adi, davraga chorladi. Chiq-chiq, dedi.»

Bu yerda yana inson psixologiyasi yetakchilik qiladi. Bir umr o’zining tabiri bilan aytganda “Davralarni gursullatib” olishib yurgan odamning davradagi “lanj”, “bo’shang” polvonlarni ko’rganda qaytadan olishgisi kelardi, shu kabi qon bilan kirgan kurash hissi jon chiqqanda ketadi.

Ba’zan personaj nutqida maqollar variantlashishi, sinonimlaridan biri ham qo’llanilishi mumkin. Bunga yuqorida bir necha misollarni ko’rib chiqdik. Maqol ham

ko’chma ma’noda qo’llanilgani uchun ibora, matal, hadisga yaqin turadi. Yuqoridagi misollardan ko’rib chiqdikki, maqollar ko’chma ma’no tashuvchi obrazli, uslubiy vositalar hisoblanadi. Ko’rsatib o’tgan va tahlil qilib o’tgan maqollarimiz xalq tilida keng qo’llanilib, muloqotda uslubiy ma’no tashish vazifasini bajaradi. Maqollar orqali umumlashma obrazli tasvir tez va oson ifodalanadi. Maqollar orqali personajning voqelikka, mulohazaga munosabati hamda tushuncha, bilim, saviya va xarakter xususiyatlariga qarab, maqollarning aytilish ohanglari ham har xil ko’rinishga ega bo’ladi. Ya’ni birov dangal, birov yashirin, kimdir pardali ohangda o’z fikrini aytadi. Biz tadqiq qilgan asarda keltirilgan maqollar asosan Bo’ri polvon hamda Nasim polvon nutqiga tegishli bo’lib: Bo’ri polvon nutqida dangal, qat’iyat bilan jaranglasa, Nasim polvon nutqida biroz yashirin, kinoyali ohangda ifodalanishi kuzatiladi. Bunda ham inson fe’l-atvori, ichki dunyosi ochib beriladi.

Ot o’rnini toy bosadi.

Mazkur maqol xalqimizning qon-qoniga singgib ketgan qadriyatlar bilan bog’liq bo’lib, har qanday ota o’z zuryodiga katta umidlar bog’lagan. Asar misolida keltirsak, ko’z o’ngimizda o’zining orini o’g’li olishini tilagan ota (Bo’ri polvon) dunyosi namoyon bo’ladi. Aslida Bo’ri polvon kurashda yengilgan emas. Suygan qiziga yetolmagani, uning Nasimga yor bo’lganini o’zining dastlabki mag’lubiyatidan deb biladi.

«Hartugul, beshinchi farzandi o’g’il bo’ldi!

Tilab-tilab topganim deya, otini Tilovberdi qo’ydi.

⁸ Shomaqsudov va Shoahmedov “
Hikmatnoma ”



*Bo'ri polvon endi orzu bilan ovundi: o'g'li
Tilovberdi balog'atga yetyapti — ot o'rnini
toy bosadi... »*

O'g'lining kuragi yerga tegganda shunga
hamohang tarzda asar so'ngida ham uning
fikrlari shu maqolga bog'liq tarzda beriladi.

*«Tilovberdini o'g'ling bilan uch safargacha
olishtiraman. Bordi-yu, uch martasidada
o'g'ling o'ktam kelsa... unda, na iloj, uchdan
keyin puch...»*

*Baribir qo'ymayman! Ana, nevaralarim bor!
Nasib bo'lsa, nevaramni nevarang bilan
olishtiraman!*

*Ishonchim komilki, nevaram bobosining orini
oladi! »*

Ayni shu mazmun ushbu asar mohiyatini
ochishda eng muhim sanaladi.

Egachim elakli bo'ldi, elagi tilakli bo'ldi.

Asarda qo'llangan ushbu xalqona maqolda
insonga xos baxillik illatiga urg'u berilgan va
yumshoq ifodalarga boy tarzda ifodalangan.

*«Bo'ri qiyofni qizlarga gartdak-gartdakdan
berdi; Momoqizga mo'lroq berdi.*

Qizlar Bo'rini kunilab-kunilab ketdi.

– Xasis, Bo'ri xasis! – dedi.

*– Egachim elakli bo'ldi, elagi tilakli bo'ldi! –
dedi.*

– Bo'ridan it ham baraka topmaydi! – dedi. »
Obrazlilik asosida yetkazilgan har qanday
propozitsiya “nishonga bexato urish” usuli
bo'lib xizmat qiladi.

Maqol xalq bisotida – lisoniy xotirasida
tayyor birlik sifatida o'rinlashgan va davrlar
osha saqlanib-sayqallanib kelgan muhim
vositadir. Uning murakkabligi faqat shu
tomoni bilan ham o'lchanmay, balki unda
ham semantik, ham sintaktik xususiyatlar
mujassamlashgani uchun ham ilmiy
tadqiqotlarda juda ko'p murojaat
qilinadigan butunlik hisoblanadi. Badiiy
nutq ijodkori ham badiiy qahramonlarining
nutqini individallashtirishda va asar tilining
pishiq ishlanishida ko'chimlar,
frazologizmlar qatorida maqollarni
qo'llashi bejiz emas. Yana, maqollarning
barchasida to'liq hukm (propozitsiya)
mavjudligi uning boshqa birliklarga
nisbatan murakkabroq birlik ekanini
ko'rsatadi. So'zlovchi (yozuvchi) qo'llagan
propozitiv butunlik aslida boshqa
propozitsiyani (presuppozitsiya) ifodalashi
badiiy nutqning ta'sirchanligi va
emotsional-ekspressivligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomaqsudov va Shoahmedov “ Hikmatnoma ”
2. Bolta Yoriev “ Til va uslub ”
3. T.Murod. “ Yulduzlar mangu yonadi ”
4. Abdurahmonov.X o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining sentaksis xususiyatlari
5. <https://uz.m.wikipedia.org>
6. <https://maqollar.uz>